

“MUHAMMAD SHAYBONIYXONNING O’RTA OSIYO TARIXIDA TUTGAN O’RNI”

Mustafojev Elbek Fozil o’g’li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro munosabatlar fakulteti 1-bosqich talabasi E-mail: mustafojevelbek007@gmail.com Telefon raqam: +998889340407

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Shayboniylar sulolasining asoschisi Muhammad Shayboniyxonning hayoti, harbiy-siyosiy faoliyati va O’rta Osiyo davlatchiligi tarixida turgan o’rni keng qamrovli bayon etilgan. Maqolada, shuningdek, Temuriylar davridagi inqirozdan so’ng mintaqada yangi siyosiy tartib o’rnatilishi, markazlashgna boshqaruv tizimining shakllanishi hamda moliyaviy inqiroz davridagi samarali pul islohotlari kompleks tarzda muhokama qilingan. Bundan tashqari, Shayboniyxonning nafaqat buyuk sarkarda, balki ilm-fan homiysi, shoir va adib sifatidagi qobiliyatlari hamda adabiy merosi tarixiy dalillar orqali ochib berilgan.*

Kalit so’zlar: *Muhammad Shayboniyxon, Shayboniylar sulolasi, Movarounnahr, hukmdor, markazlashgan davlat, madaniy meros, harbiy va iqtisodiy islohotlar*

Abstract: *This article comprehensively describes the life, military-political activities and place of the founder of the Shaybanid dynasty, Muhammad Shaybani Khan, in the history of Central Asian statehood. The article also comprehensively discusses the establishment of a new political order in the region after the crisis of the Timurid era, the formation of a centralized management system, and effective monetary reforms during the financial crisis. In addition, Shaybani Khan's abilities as not only a great commander, but also a patron of science, a poet and a man of letters, as well as his literary heritage are revealed through historical evidence.*

Keywords: *Muhammad Shaybani Khan, Shaybanid dynasty, Transoxiana, ruler, centralized state, cultural heritage, military and economic reforms*

Аннотация: *В данной статье всесторонне описана жизнь, военно-политическая деятельность и место основателя династии Шайбанидов, Мухаммада Шайбани-хана, в истории центральноазиатской государственности. Также подробно рассматривается установление нового политического порядка в регионе после кризиса эпохи Тимуридов, формирование централизованной системы управления и эффективные денежные реформы во время финансового кризиса. Кроме того, на основе исторических свидетельств раскрываются способности Шайбани-хана не только как великого полководца, но и как покровителя науки, поэта и литератора, а также его литературное наследие.*

Ключевые слова: *Мухаммад Шайбани-хан, династия Шайбанидов, Трансоксиана, правитель, централизованное государство, культурное наследие, военно-экономические реформы*

KIRISH

Insoniyat tarixida shunday shaxslar yetishib chiqadiki, ularning metin irodasi butun bir mintaqaning taqdirini o'zgartirib yuboradi.

XVI asr boshlarida Markaziy Osiyo mintaqasi bir yarim asrdan ortiq hukmronlik qilgan Temuriylar sulolasining inqirozidan so'ng o'zining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotida tub yangilanishlar davrini boshdan kechirdi.

Ushbu davrda siyosat maydoniga Sirdaryoning yuqori oqimi va Tyanshanning g'arbiy yonbag'ridan Dnepr daryosining quyi oqimiga qadar cho'zilgan dashtlarni o'z ichiga olgan Dashti Qipchoq hududidan yangi bir kuch – Muhammad Shayboniyxon boshchiligidagi Shayboniylar sulolasining kirib kelishi mintaqada nafaqat sulolaviy o'zgarishni, balki butun mintaqa tarixini qayta shakllantirgan hodisa bo'ldi.[1] Tarixchilar tomonidan Shayboniyxon shaxsi uzoq yillar davomida harbiy strateg sifatida talqin qilingan bo'lsada, zamonaviy davrda bu shaxs faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning faoliyati zamirida markazlashgan davlat boshqaruvining shakllanishi, mintaqada ilmiy-madaniy hayotning gullab yashnaganligi hamda hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan islohotlar yotganligini bilib olishimiz mumkin. Xo'sh, Shayboniyxon o'zi kim va u qanday qilib O'rta Osiyo hududiga kelib qolgandi? Muhammad Shayboniyxon 1451-yilda tug'ilgan bo'lib, uning yoshlik yillari og'ir siyosiy va ijtimoiy sinovlar ostida kechdi. Otasi Shohbudog' sulton vafotidan so'ng, u bobosi Abulxayrxonning vasiyligida qoldi, biroq 1468-yilda Abulxayrxon vafot etgach, ko'chmanchi o'zbeklar davlati parokandalikka uchradi. Natijada yosh Shayboniyxon o'zining yaqin tarafdorlari bilan darbadarlikda hayot kechirishga, turli xonlar va amirlar xizmatida navkarlik qilishga majbur bo'ldi. Bu davrda u nafaqat Dashti Qipchoqda harbiy strategiyalarni o'rgandi, balki ilmga bo'lgan chanqoqligi sababli Buxoro madrasalarida tahsil olib, islom falsafasi, adabiyot va fiqh ilmlarini chuqur o'rgandi.[2] Va aynan o'sha kezlarda Shayboniyxon Movarounnahr hayoti hamda unda yuz berayotgan siyosiy voqealardan xabardor bo'lib turadi. Hech shubhasiz ayta olamanki, Muhammad Shayboniyxonning Movarounnahrda kirib kelishi shunchaki tasodifiy yurish emas, balki aniq strategik maqsadga yo'naltirilgan harakat edi. Uning asosiy maqsadi — Temuriylar o'rtasidagi nizolar tufayli parokanda bo'lgan mintaqada yagona, markazlashgan va qudratli davlat barpo etish hamda Ipak yo'lining iqtisodiy tugunlarini nazorat qilishdan iborat bo'lgan. Muhammad Shayboniyxon o'zining siyosiy da'volarini sulolaviy qonuniylik (legitimlik) tamoyili asosida shakllantirgan. U o'zini Chingizxon va Jo'jixonning bevosita vorisi deb bilgan holda, Movarounnahrni bir paytlar o'z ajdodlariga tegishli bo'lgan merosiy hudud sifatida talqin qilgan. Uning mafkuraviy qarashlariga ko'ra, Temuriylar bu hududda "vaqtincha" hukmronlik qilgan sulola hisoblanib, Shayboniyxonning yurishlari ajdodlar mulkini qaytarish va tarixiy adolatni tiklash mazmuniga ega edi. Aynan shu omil ko'chmanchi o'zbek qabilalarining yagona mafkura atrofida jiplashishiga va Temuriylarga qarshi kurashning ma'naviy asosini yaratishga xizmat qilgan.[3]

Asosiy qism: Shayboniyxon Movarounnahr zaminiga qadam qo'ygach unga ba'zi bir Temuriy shahzodalar qarshilik ko'rsatishdi va, albatta, ular orasida o'zini Amir Temurni avlodi deb hisoblagan, bobosi barpo etgan buyuk imperiyani yana qayta tiklashni, Samarqandni davlat poytaxti maqomidagi nufuzini saqlab qolishni o'zi uchun burch sifatida qabul qila olgan Zahiriddin Muhammad Bobur alohida ajralib turardi. Zahiriddin Muhammad Bobur va Muhammad Shayboniyxon o'rtasidagi kurash XVI asr boshlarida Markaziy Osiyo geosiyosiy qiyofasini belgilab bergan eng keskin sulolaviy to'qnashuvdir. Bu kurash shunchaki ikki shaxsning raqobati emas, balki mintaqada o'z hukmronligini yo'qotayotgan Temuriylar va yangi kuch sifatida ko'tarilayotgan Shayboniylar o'rtasidagi siyosiy qarama-qarshilik edi. To'qnashuvning eng hal qiluvchi nuqtasi 1501-yilgi Saripul jangi bo'lib, unda Shayboniyxonning "to'lg'ama" usuli Boburning harbiy taktikasidan ustun keldi va bu g'alaba Shayboniylarning Movarounnahrda o'rnashib qolishini ta'minladi. Deyarli Shayboniyxonning barcha yurishlarida ishtirok etgan tarixchi Muhammad Solih o'zining "Shayboniynoma" asarida shunday yozadi:

Chun o'zbek ishi to'lg'ama keldi ham,
G'anim ko'ziga olam bo'ldi qorong'u dam.[2]

Bu misralar orqali tarixchi Muhammad Solih Shayboniyxonning jangda qo'llagan "to'lg'ama" usuli jang taqdirini hal qilganini mufassal tasvirlab bergan. Bobur Samarqandni uch marta egallashga urinib, qisqa muddatlarda muvaffaqiyatga erishgan bo'lsa-da, Shayboniyxonning strategik ustunligi va qat'iyati tufayli oxir-oqibat o'z vatanini tark etishga majbur bo'ldi. Bu kurashda Shayboniyxon nafaqat harbiy kuchga, balki mahalliy ulamolar va aholining bir qismini o'z tomoniga og'dirishga qaratilgan siyosiy diplomatiyaga ham tayandi. Murosasiz davom etgan ushbu raqobat natijasida Bobur Mirzo Janubga — Hindiston sari chekindi, bu esa mintaqada o'zbek davlatchiligining yangi bosqichi boshlanishiga zamin yaratdi.



Shu tariqa, O'rta Osiyoda Shayboniylar sulolasining hukmronligi boshlandi. Bu davr mintaqa tarixida nafaqat sulolaviy almashinuv, balki iqtisodiy, siyosiy, madaniy tizimni tubdan takomillashuvi bilan xarakterlanadi. Ushbu keng ko'lamli takomillashuv jaryonlarining tub mohiyatini anglash uchun bevosita sulola asoschisi hisoblangan Muhammad Shayboniyxon tomonidan olib borilgan strategik islohotlarning amaliy natijasiga nazar tashlashimiz lozim. Ushbu islohotlar natijasi o'laroq ushbu shaxs o'z davlatini ko'chmanchi hayotdan barqaror markazlashgan tuzilma darjasigacha ko'tarilishi ta'minlashni uddalay oldi va quyidagi sohalarda o'z natijasini ko'rsatdi.



Xususan, Shayboniyxon tomonidan amalga oshirilgan “monetar” islohotlar Movarrounnahr aholisi hayotida tub burilish yasadi, negaki o'sha davrda yuz bergan “kumush inqirozi” aholining yashash tarzini ancha qiyinlashtirib qo'ygan edi. 1507-yilda Movarrounnahrning markaziy shaxarlarida, xususan, Buxoro, Samarqand va Hirot shaharlarida yagona standard asosida kumush tangalarning zarb qilinishi ichki hamda tashqi savdning barqarorlashuviga olib keldi.[4] Shu bilan birga, Shayboniyxon davrida mamlakatda vaqf yerlaridan foydalanish anchayin takomillashtirildi va yerga qonuniy rasmiylashtirish mehanizmlari ishlab chiqildi va mulklarning daxlsizligini, ulardan tushadigan daromadlarni kerakli o'rinda sarflanishini ta'minlovchi alohida shaxslar tayinlandi. Bu sohada qabul qilingan qarorlar ziroatkor aholining davlatga bbo'lgan ishonchini orttirib, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarilishi hajmi 15-20 foizgacha oshishiga ko'maklashdi. [5] Yuqorida aytib o'tganimdek, Shayboniyxon o'z xalqini ko'chmanchi hayot tarzidan markazlashgan davlat darajasigacha olib chiqdi ba bu o'rinda uning davlat boshqaruvida “devonxona” tizimini joriy etganligi e'tiborga molik. Mazkur tizimining joriy etilishi natijasida soliq yig'ish va harbiy ta'minot masalalari bevosita oliy hukmdor nazoratiga o'tdi. Mazkur tizim ko'chmanchi qabilaviy boshqaruv an'analarini o'troq shahar madaniyati boshqaruv usullari bilan sintez qila olganligi sababli mintaqada siyosiy barqarorlik o'rnatildi. [1] Muhammad Shayboniyxon o'z davrida nafaqat buyuk davlat rahbari, balki ilm-fan, madaniyat homiysi sifatida ham mashhurlikka erishdi. Uning hukmronligi davrida Samarqand hamda Buxoro shaharlari

o'zining ilm-fan markazi sifatidagi nufuzini saqlab qoldi. Xonning o'zi yoshlik paytlari Buxoro madrasalarida mukammal ta'lim olgani sababli, ilm ahliga alohida ehtirom ko'rsatdi va bu an'ana uning saroy hayotining ajralmas qismiga aylandi. Uning atrofida Mavlono Muhammad Xitoyi kabi fiqh olimlari, xattot sulton Ali Mashhadiy va musavvir Kamoliddin Behzod kabi san'at darg'alari to'planishi natijasida madaniy muhitning uzviyligi ta'minlandi. Shayboniyxonning shaxsan o'zi ham sermahsul ijodkor bo'lib, turkiy hamda forsiy tillarda "Baxrul-hudo" masnaviysini va o'zbek tilidagi mukammal "Devon" ini yaratdi.[6] Movarounnahrning ko'plab hududlarida kutubxona va madrasalar tizimining shakllantirilishi uning madaniy hayotga bo'lgan e'tibori davlat boshqaruviga berilgan e'tibordan kam emasligini ko'rsatib turadi. Lekin, Movarounnahr egallangach, yillar davomida tashqi dushmanlarga qarshi kurashib turishga majbur bo'ldi. Huddi shunday janglardan biri Eron shohi Ismoil I Safaviyga qarshi bo'lib o'tdi va 1510-yilda Marv shahrida bo'lib o'tgan ushbu jangda Muhammad Shayboniyxon fors askarlarining pistirmasiga duchor bo'ladi va fojiali tarzda halok bo'ladi. Muhammad Shayboniyxonning kutilmagan vafoti mintaqada vaqtincha siyosiy sarosimani keltirib chiqargan bo'lsa-da, u tomonidan poydevori qo'yilgan davlat boshqaruvi va ma'muriy tizimning mustahkamligi Shayboniylar sulolasining Movarounnahrda yana bir yarim asrdan ortiq hukmronlik qilishini ta'minlab berdi.

Xulosa: Muhammad Shayboniyxon Markaziy Osiyo tarixida nafaqat kuchli sarkarda, balki markazlashgan o'zbek davlatiga asos solgan hukmdor sifatida ham muhim o'rin egallaydi. Uning faoliyati tufayli Temuriylar davridagi ichki nizolar va parokandalik tugatilib, yagona va mustahkam boshqaruv tizimi shakllandi. Shayboniyxon davlatni rivojlantirish uchun ma'muriy tizimni tartibga soldi, pul muomalasini yo'lga qo'ydi va vaqf mulklarini boshqarishni yaxshiladi. Bu esa mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qildi.

U yaratgan siyosiy va madaniy asoslar keyingi davrlarda ham Movarounnahr taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Natijada, bu hudud o'zining geosiyosiy ahamiyatini saqlab qoldi va islom olamidagi ilmiy markazlardan biri bo'lib qolishda davom etdi. Shayboniyxon 1510-yilda vafot etgan bo'lsa-da, u asos solgan boshqaruv tizimi Shayboniylar davlatining uzoq vaqt davomida barqaror bo'lishiga yordam berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Sulaymonova, F. Shayboniylar sulolasi // Ta'limdagi ilmiy islohotlar va izlanishlarning Yangi O'zbekiston taraqqiyotidagi o'rni va rivojlanish omillari: konferensiya materiallari to'plami. – Namangan, 2025. – 1-son. – B. 616–624.
2. Muhammad Solih. Shayboniynoma / Nashrga tayyorlovchi: E. Shodiyev. – Toshkent: Fan, 1989. – 336 b.

3. Nurkulova, R. R. Muhammad Shaibani Khan: The Legacy of a Renaissance Ruler // International Journal of History and Political Sciences. – 2024. – Vol. 04. Issue 03. – P. 51–53.

4. Sirojov B. N. Coins, Power, and Commerce: How the Shaybanid Dynasty Reshaped the Economy // Journal of Central Asian Economic History. – 2026. – Vol. 1. – P. 84–91.

5. Abduazimov D. B. The Formation of the Central Administration of the Shaybanians in the State of Bukhara // American Journal of Public Diplomacy and International Studies. – 2025. – Vol. 3. Issue 5. – P. 1–3

6. Nurkulova, R. R. Muhammad Shaibani Khan: The Legacy of a Renaissance Ruler // International Journal of History and Political Sciences. – 2024. – Vol. 04. Issue 03. – P. 51–56.